

TIJORAT BANKLARINING QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORIDAGI FAOLIYATI

Abdullayev Doston Zubaydullo o‘g‘li

Bank moliya akademiyasi magistranti

d_abfa@mail.ru

Anotatsiya: Ushbu maqolada tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyatini tahlil etiladi. Qimmatli qog‘ozlar davlatning to‘lov oborotida katta rol o‘ynaydi, chunki ko‘pincha ular orqali iqtisodiyotning ustuvor sohalariga investitsiyalarni ta‘minlovchi investitsion jarayonlar amalga oshiriladi. Shu bois, tijorat banklarning qimmatli qog‘ozlar bozoridagi ishtirokida investitsiya faoliyatining ko‘lami va samaradorligi hamon pastligicha qolmoqda. Shuningdek, ushbu maqolada tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bilan amalga oshiriladigan investitsion operatsiyalarini tahlili, shuningdek banklarining qimmatli qog‘ozlar bilan amalga oshiriladigan investitsion operatsiyalarini rivojlantirishdagi muammolar hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha muallif yondashuvlari va takliflari keltirilgan.

Abstract: This article analyzes ways to improve the performance of commercial banks in the securities market. The main factors affecting the efficiency of banks in developing countries, including Uzbekistan, are considered. Issues such as the use of financial technologies, risk management strategies, training of specialists, international cooperation and legal frameworks are analyzed. The results of the study show how Uzbek banks can improve their performance, which will help increase the financial stability and market competitiveness of banks.

Kalit so‘zlar: Tijorat banklari, qimmatli qog‘ozlar bozori, moliyaviy texnologiyalar, risklarni boshqarish, mutaxassislarni tayyorlash, xalqaro hamkorlik, huquqiy asoslar.

Keywords: Commercial banks, securities market, financial technologies, risk management, training of specialists, international cooperation, legal frameworks.

Kirish: Hozirgi jahon iqtisodiyotida qimmatli qogʻozlar bozori moliyaviy barqarorlikni taʼminlash, investisiyalarni ragʻbatlantirish va kapitalning samarali taqsimlanishini taʼminlashda hal qiluvchi rol oʻynaydi. Ushbu bozorning rivojlanishi iqtisodiy oʻsish va innovasiyalarga hissa qoʻshishi mumkin boʻlsa-da, uning rivojlanishiga ijobiy va salbiy taʼsir koʻrsatadigan turli xil omillar mavjud. Shuningdek, bugungi kunda banklarning qimmatli qogʻozlar bilan amalga oshiradigan barcha operatsiyasidan bosh maqsad – bu foyda olishdir. Shuning uchun barcha banklar qimmatli qogʻozlarga investitsiya qilishdan oldin foyda olishni chuqur tahlil qiladilar. Shunday qilib, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 may kuni qabul qilingan “2020–2025 yillarga moʻljallangan Oʻzbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF-5992-sonli Farmonida, “qimmatli qogʻozlar bozorida banklarning operatsiyalarini faollashtirish, tijorat banklari tomonidan korporativ obligatsiyalarni chiqarish va joylashtirish hamda boshqa instrumentlar uchun maʼmuriy toʻsiqlarni kamaytirish, bir vaqtning oʻzida nazoratni kuchaytirish, banklarning qimmatli qogʻozlarini xalqaro kapital bozoriga chiqarish boʻyicha huquqiy bazani yaratish” lozimligi koʻrsatib oʻtildi [1]. Oʻzbekiston Respublikasida tijorat banklari qimmatli qogʻozlar investitsiya portfelini shakllantirish va uni boshqarishda passiv strategiyaning ikki usulidan xam foydalanadilar. Tahlillar shuni koʻrsatmoqdaki, hozirgi vaqtda Respublikamizdagi tijorat banklari tomonidan asosan qisqa muddatli qimmatli qogʻozlarga investitsiya qilish faoliyati olib borilmoqda. Tijorat banklarning qimmatli qogʻozlar bilan agressiv siyosati asosida qimmatli qogʻozlarning fond bozorida kursi va foiz stavkasini tebranishidan imkoni boricha koʻp daromad olish yotadi. Lekin shuni taʼkidlash lozimki bunday agressiv siyosatni faqatgina katta miqdordagi investitsiya portfeliga ega boʻlgan moliyaviy barqaror yirik banklar olib borishi mumkin. Qimmatli qogʻozlar bilan agressiv siyosat oqilona va muvaffaqiyatli olib borish uchun esa bank tegishli analitik imkoniyatga ega boʻlishi lozim. Bunda fond bozorini hozirgi va kelajakdagi holatiga holisona baxo berish, baxolar oʻzgarishini toʻgʻri taxmin qilish shart. Biroq, mamlakatimizda banklarning qimmatli

qog‘ozlar bozoridagi faoliyatini iqtisodiy islohotlarni olib borishdagi ahamiyatini oshirish amaliyotini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi

Horijiy davlatlarning me‘yoriy hujjatlarida qimmatli qog‘ozlar «hujjat egasining bunday hujjatni chiqargan shaxsga nisbatan mulkiy huquqlarini yoki qarz munosabatlarini tasdiqlovchi pul hujjati sifatida» ancha qisqa ta’riflanadi. Huquqiy nuqtayi nazardan, an’anaviy tarzda qimmatli qog‘ozlar ancha keng ma’noda ko‘rib chiqiladi – ya’ni bular «mulkiy huquqlarni belgilangan shaklga va majburiy rekvizitlarga amal qilgan holda tasdiqlovchi hujjatlar bo‘lib, ularni taqdim etgan taqdirdagina mazkur huquqlarni amalga oshirish yoki boshqa shaxslarga berish mumkin bo‘ladi». Bu ma’noda qimmatli qog‘ozlarga «quyidagilar kiradi: obligatsiyalar, veksellar, cheklar, depozit va jamg‘arma sertifikatlar, bankning taqdim qiluvchiga pul beriladigan jamg‘arma daftarchasi, qonosament hamda qonun hujjatlari bilan qimmatli qog‘ozlar jumlasiga kiritilgan boshqa hujjatlar». Shunday qilib, turli manbalarda, jumladan «Qimmatli qog‘ozlar va fond birjalari to‘g‘risida»gi qonun hamda «Fuqarolik kodeksi»dagi qimmatli qog‘ozlarning ta’rifi bir-biridan jiddiy tarzda farq qiladi. Qimmatli qog‘ozlarni bundan ham keng ma’noda ko‘rib chiqish mumkin. Yuqorida tilga olingan hujjatlardan tashqari, yana shunday, qimmatli qog‘ozlarga tegishli bo‘lmasada, lekin, ayrim iqtisodchilarning fikriga ko‘ra, qimmatli qog‘ozlar, deb tan olinayotgan hujjatlar ham mavjud, chunki ular ko‘pgina hozirgi ta’riflarda qimmatli qog‘ozlarning barcha asosiy belgilarini o‘zida mujassamlantiradi. Gap, albatta, pul haqida borayapti.[Shoxa’zamiy 2012 5]



1 rasmda ko‘rishimiz mumkinki, [Birjaviy tahlil,2024 5]bitimlar hajmi bo‘yicha tarmoqlar ichida bank va boshqa sohalar qimmatli qog‘ozlari yetakchi bo‘lgan. Bank sohasi

emitentlarining qimmatli qog'ozlari bilan tuzilgan bitimlar hajmi 1,84 trln. so'mni tashkil etgan, bu umumiy birja aylanmasining 96,32%ni tashkil etgan. Boshqa iqtisodiy sohaga taalluqli kompaniyalar qimmatli qog'ozlari bilan – 52,63 mlrd. so'm hamda sug'urta tarmog'iga kiruvchi tashkilotlarning qimmatli qog'ozlari bilan – 12,99 mlrd. so'mlik bitimlar qayd etilgan.

1 rasm “Toshkent” RFBda aksiya bitimlar hajmi bo'yicha Top o'ntalik, mlrd so'm [2024]

2024-yil sentabr oyida iqtisodiy sohalar bo'yicha bitimlar hajmi, mlrd so'm bo'yicha tarmoqlar ichida bank va boshqa sohalar qimmatli qog'ozlari yetakchi bo'ldi. Bank sohasi emitentlarining qimmatli qog'ozlari bilan tuzilgan bitimlar hajmi 1,84 trln. so'mni tashkil etdi, bu umumiy birja aylanmasining 96,32%ni tashkil etdi. Boshqa iqtisodiy sohaga taalluqli kompaniyalar qimmatli qog'ozlari bilan – 52,63 mlrd. so'm hamda sug'urta tarmog'iga kiruvchi tashkilotlarning qimmatli qog'ozlari bilan – 12,99 mlrd. so'mlik bitimlar qayd etildi, Eng ko'p bitimlar soni bank sektori emitentlarining qimmatli qog'ozlari bilan tuzilgan bo'lib, 21 089 ta bitimni tashkil etdi. Boshqa sohalar qimmatli qog'ozlari bilan 2 617 dona, “Sanoat” sohasiga aloqador emitentlarining qimmatli qog'ozlari bilan esa 1 230 ta bitim tuzildi. Iqtisodiy tarmoqlar bo'yicha eng kam bitimlar soni “Transport” sohasida – 61 dona, va “Lizing” tarmog'ida – 13 donaga teng bo'lgan emitentlarning qimmatli qog'ozlari bilan tuzilgan bitimlarga to'g'ri keldi.

Tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatini tashkil etish modelini bo'lgan omillar xususida to'xtalish maqsadga muvofiqligini inobatga olib, ularning asosiylari haqida qisqacha mulohaza yuritishga harakat qilamiz: [Niyozmetova, 2024. 4]

1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatini tizimli modeli moliya bozorlarining rivoji va holati bilan bevosita bog'liq holda rivojlanishga kuchli ehtiyojning mavjudligi. Tahlillar va tadqiqotlar natijasida tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozorida operatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha qisqa (o'rta) va uzoq (strategik) muddatga mo'ljallangan siyosatning mavjud emasligi, banklar ushbu faoliyatini stixiyali ravishda tashkil etishi ma'lum bo'ldi. Ta'kidlash joizki tijorat

banklari qimmatli qog'ozlar bozorida operatsiyalari orqali barqaror va arzon manbalar hisobidan ta'minlashning ma'lum muddatga mo'ljallangan siyosatini ishlab chiqishda tegishli manbalar zarur bo'ladi, ya'ni banklar mazkur sohadagi asosiy maqsadi nimaga qaratilganligi, mamlakat moliya va pul resurslari bozoridagi ahvolining holati haqidagi va boshqa manbalarning mavjud emasligi shular jumlasidandir.

Bunday manbalarning mavjud emasligi tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi operatsiyalarini amalga oshirish orqali banklarning uzoq muddatli moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash, bankning likvidlilik bilan bog'liq muammosini zudlik bilan hal etish imkoniyatlariga ega bo'lishi, shuningdek tegishli daromad ishlab topish kabi iqtisodiy manfaatdorligini mustahkamlashga e'tibor qaratilmagan. Mazkur tizimli modelning amaliyotga joriy etilishi ushbu yo'nalishdagi dastlabki ziddiyatli holatlarni hal etishga xizmat qiladi.

2. Mahalliy va xorijiy investorlar, omonatchilar hamda mijozlarni bank faoliyatining umumiy strategik rivojlantirish yo'nalishi bo'yicha ishonchini shakllantirish zarurligi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat yuritayotgan mamlakatlarning tajribalari hamda tadqiqot ishi jarayonida shakllantirilgan natijalar bozor iqtisodiyoti sharoitida samarali faoliyat asosini iqtisodiy hamkorlar o'zaro ishonchi tashkil qilishiga amin bo'ldik. Shu jihatdan olib qaraydigan bo'lsak, respublikamiz tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozoridagi operatsiyalarini amalga oshirishda mahalliy va xorijiy investorlar, omonatchilar hamda bank mijozlarining faol ishtirokini ta'minlash uchun eng avvalo ularning to'liq ishonchini shakllantirish zarur.

“Kapitalbank” ATB O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozoridagi eng yetakchi banklardan biri. Moliya bozorining turli segmentlari orasida qimmatli qog'ozlar bozori Bank uchun ustuvor hisoblanadi. Ko'rsatiladigan xizmatlar turini kengaytirgan holda, Bank mijozlarning ehtiyojlarini qondirish yo'lidan borib, mamlakat fond bozori rivojiga o'z hissasini qo'shmoqda. Mazkur bozorda operatsiyalar ko'lamini kengaytirish balans tuzilmasini maqbullashtirish, Bankning likvidlik va daromadlilik darajasini ko'tarish hamda mijozlarning investitsiyalarga bo'lgan ehtiyojini qondirishga qaratilgan.[“Kapitalbank” 2024]

Erkin pul mablag'larini samarali jalb etib, ularni joylashtirar ekan, Bank mijozlar uchun ham, sheriklar uchun ham ishonchli hamkor bo'lib qolmoqda. To'plangan tajriba va yangi g'oyalar Bank erishgan yutuqlar garovi hisoblanadi.

“Kapitalbank” ATB quyidagi tashkilotlarga azo hisoblanadi.

- Investitsion institutlar milliy assotsiatsiyasi;
- Qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilari milliy assotsiatsiyasi;
- Xalqaro emissiya sindikati a'zosidir.
- "Toshkent" Respublika Fond Birjasi

Bank qimmatli qog'ozlar bozorida quyidagi operatsiyalar va xizmatlarni amalga oshiradi:

Anderrayting faoliyati – bu emitentning qimmatli qog'ozlarini anderrayter va emitent o'rtasidagi shartnomada belgilanadigan shartlarda chiqarish va/yoki kafolatli joylashtirishni tashkil etish bo'yicha faoliyatdir.

Investitsion aktivlarning boshqaruvchi faoliyat.

Investitsion maslahatchi faoliyati.

Qimmatli qog'ozlar emissiya qilinishi anderraytingi emitent, Bank va investorlar o'rtasida tuziladigan anderrayting shartnomasi asosida amalga oshiriladi. Mazkur anderrayting shartnomasi emissiya qilingan qimmatli qog'ozlarni kafolatli joylashtirish shakli, tartibi va shartlarini belgilaydi. “Kapitalbank” ATB anderraytingni amalga oshirar ekan, chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni eng yaxshi narxda va eng qisqa muddatda joylashtirish majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi. Bunda Bank qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyat yuritish bo'yicha barcha imkoniyatlardan foydalanadi hamda qimmatli qog'ozlar emissiya qilingani to'g'risida ma'lumotni oshkor qiladi. Birjadan tashqari savdolar elektron tizimida qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotishga buyurtmalar qabul qilish. Bankning har bir filialida birjadan tashqari qimmatli qog'ozlar savdolari elektron tizimida qog'ozlarni sotib olish va sotishga buyurtmalar qabul qilish

hamda buyurtma qabul qilish punktlari mijozlariga bank xizmatlari ko'rsatish punktlari bor.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, banklarning qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan investitsion operatsiyalarini rivojlantirish uchun ham davlat tomonidan ham banklar tomonidan etarlicha e'tibor qaratilishi darkor. Qimmatli qog'ozlar bozoridagi tijorat banklarining investitsiya faoliyati banklar uchun yangi imkoniyatlar va o'z faoliyati doirasini kengaytirish hamda barqaror daromadni olib, bankni likvidligini taminlash istiqbolini yaratib beradi. Banklarning qimmatli qog'ozlarga qilgan investitsiyalarining samaradorligi, kiritilgan investitsiyalardan keladigan daromadlar orqali aniqlanadi, hamda shundan kelib chiqib yuqori daromadlilikka erishiladigan qimmatli qog'ozlarga investitsiya kiritiladi. Daromadlilikni hisoblashda bir necha usulardan foydalaniladi va shundan kelib chiqib oqilona qaror qabul qilinadi. Biroq har doim ham kutgan natijaga erishilavermaydi. O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozorida samarali faoliyat yuritish uchun qulay sharoitlar mavjudligiga qaramay, ko'pgina tijorat banklari davlat moliya bozorining eng muhim segmentini intiluvchanliksiz o'zlashtirishmoqda, vaholanki, ushbu bozorning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini ishga solish milliy iqtisodiyotini jadal rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan bo'lar edi

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 may kuni qabul qilingan "2020–2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli Farmoni.
2. QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORI Sh.Sh. Shoxa'zamiy, F.A. Xamidova, F.T. Muhamedov, I.O. Madaminov 2012 yil 5 bet.
3. Birjaviy_tahlil_Sentyabr_2024_yil_
4. Niyozmetov Doniyor Rejabbayevich "Banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi operatsiyalari bilan bog'liq muammolari va bartaraf etish yo'llari" 2024 yil Iqtisodiyot taraqqiyot va tahlil jurnal. 6 b.
5. [Qimmatli qog'ozlar - «Kapitalbank» ATB.uz.](#)